



INVESTITSIYA LOYIHALARINING AMALGA OSHIRISHNING MILLIY IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

¹Djabbarov Raximjon Abdullaevich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univeristeti
"Ekonometrika va iqtisodiy modellashtirish" kafedrası tayanch
doktoranti Djabbarov.raximjon@gmail.com,

²Baxtiyorov Asliddin Ulug'bek o'g'li

Iqtisodiyot fakulteti, 3-kurs Ekonometrika yo'nalishi talabasi
asliddinbaxtiyorov555@gmail.com.

ARTICLE INFO

Received: 01st April 2023

Accepted: 14th April 2023

Online: 25th April 2023

KEY WORDS

Iqtisodiy tahlilning maxsus
usullari, tahlil usullari, tahlil
natijalari, investitsiya,
investitsion muhit, milliy
iqtisodiyot.

ABSTRACT

Ushbu maqolada investitsiya faoliyati, infratuzilmalar nazariyasi va vazifalarini o'rganamiz va investitsiya loyihalarining amalga oshirishning milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'siri, mamlakatimizda shu sohada olib borilayotgan islohotlar, investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar va uni yaxshilash uchun takliflarni ko'rib chiqamiz.

Kirish. Investitsion faoliyatda erishilgan aniq yutuq va muvaffaqiyatlarning keng va atroflicha tahlili, shu asosdagi muhim amaliy xulosalar, kelgusida e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan eng dolzarb masalalar orasida mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari va rivojlanish dasturlarini belgilashda, albatta, asosiy e'tibor xorijiy investitsiyalarga qaratilayotganligini ta'kidlash kerak. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi investitsiya faoliyatining taraqqiyotiga, uning o'zi esa investitsiya muhitiga bevosita bog'liq. Bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilish mamlakat investitsiya siyosatining bosh maqsadi bo'lib qolmoqda. Chunki bo'lib o'tgan pandemiya sharoiti iqtisodiyot tarmoqlari oldiga keng qamrovli inqirozlardan himoyalaniş kabi murakkab vazifalarni qo'ydi. Ayniqsa, ichki va tashqi bozorlarda yuqori raqobatga erishishda eng avvalo, investitsion jozibadorlikni oshirish masalasi zarur bo'lgan asosiy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, ishlab chiqarishning bir maromda faoliyat ko'rsatishi uchun infratuzilma bo'linmalarini yanada rivojlantirishimiz kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

1. 2012-yil chop etilgan Amonboyev M. ning "Bozor infratuzilmasi nazariyasi" o'quv qo'llanmasida investitsiyalarni jalb etish haqida ma'lumot berilgan¹.
2. Investitsiya loyihalarini va ularni moliyalashtirish yuzasidan olib borilgan ilmiy ishlar asosida o'quv qo'llanma yozishgan D.Ahmadov, A.Jumayev va Q.Ishmuhammedovlarning "Investitsiya loyihalarini" nomli maqolasida investitsiyani qo'llab quvvatlash haqida barcha yo'nalishlari o'z aksini topgan.

¹ Amonboyev M. ning "Bozor infratuzilmasi nazariyasi" 2012 yil , 185 bet, 87-bet.



3. Djeffri Vuldriddj "Introductory Econometrics: A Modern Approach" nomli kitobida ekonometrika bilan iqtisodiyotni o'zaro bog'liqligi kelitirilib o'tilgan.²

Taxlil va natijalar

Bugungi kunda mamlakatimiz milliy iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish uchun kerak bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish, ularni huquqiy jihatdan himoyalashning turli xil mexanizmlarni joriy etish va investitsiya muhitini yaxshilash, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va samaradorligini oshirish eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Birinchi navbatda aniq faktlarga asoslangan investitsiyaga doir statistik kursoratkichlarni korib chiqish maqsadga muvofiq.(1-jadval) **(1-jadval)**³

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi (chet el investitsiyalari va kreditlari)			
Hududlar	2019	2020	2021
O'zbekiston Respublikasi	43.6	42.7	42.3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	36.9	38.9	37.4
Andijon	39.6	36.3	45.6
Buxoro	53.9	48.2	58.5
Jizzax	48.8	61.9	44.5
Qashqadaryo	70.3	69.3	53.6
Navoiy	39.9	67.8	61.3
Namangan	45.8	37.2	29.8
Samarqand	27.8	27.0	34.9
Surxondaryo	66.3	60.1	45.2
Sirdaryo	44.8	48.7	59.8
Toshkent	26.0	26.7	34.3
Farg'ona	42.7	41.3	39.1
Xorazm	42.5	32.0	33.5
Toshkent sh.	36.7	29.9	37.3

Quyida berilgan jadval ma'lumotlari asosida kiyingi yilga nisbatan pragnoz natijalarimizni berishimiz mumkin va bu orqali chet-el investitsiyalarini jalb qilishga doir yangi islohatlar joriy etiladigan taqdirda bunday islohatlarni yalpi investitsiya hajmiga qay darajada ta'sir etishi va bunday islohatlarning yalpi investitsiya hajmini oshishida ahamiyatlilik koeffisientini tahlil qilish orqali kursoratkichlarni baholashimiz mumkin (2-jadval).

(2-jadval)⁴

Regression statistika, dispersiya taxlili

² Djeffri Vuldriddj "Introductory Econometrics: A Modern Approach".Darslik. 2002-yil, 741 bet.

³ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>

⁴ 1-jadval ma'lumotlari asosida ekonometrik tahlil



Регрессионная статистика							
Множественный R	0.340987927						
R-квадрат	0.116272766						
Нормированный R-квад	0.04262883						
Стандартная ошибка	10.357599						
Наблюдения	14						
Дисперсионный анализ							
	df	SS	MS	F	Значимость F		
Регрессия	1	169.3788571	169.3788571	1.57885051	0.232836308		
Остаток	12	1287.358286	107.2798571				
Итого	13	1456.737143					
		Коэффициент	Стандартная ошибка	Статистика	P-Значение	Нижние 95%	Верхние 95%
Y-пересечение		50.13015873	6.460111712	7.933078206	4.09714E-06	37.17319715	65.32394571
	1	-0.736547619	0.686702127	-1.256523183	0.232836308	-2.359052548	0.633338262

Iqtisodiy-matematik usullar iqtisodiy tahlil fanining rivojlanib borgan natijasida vujudga kelgan bo'lib, bunda turli dasturiy ta'minotlar va matematik usullardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki endilikda bizga faqat an'anaviy usullar orqali tahlil qilish kamlik qila boshladi. Masalan, bir nechta omillar o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash ular o'rtasida regressiya tuzish va bu orqali ularning bir-biri bilan qanday darajada bog'liqligni aniqlash va bular orqali istiqboldagi natijalarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb eta boshladi.[4] Ta'biyki bu jarayonlarni amalga oshirish ma'lumotlar ko'paygani sayin qiyinlashib boradi ya'ni insonlar uchun ularni bajarish ko'p vaqt talab qilishi mumkin va xatoliklar ham kelib chiqishi ehtimoldan holi emas. Shu sababli tahlilning bu jihatini o'ylagan holdan bir nechta dasturiy ta'minotlar ishlab chiqilgan. Bu bizga ma'lumotlarni xatosiz va qisqa fursat ichida tahlil qilishga va kutilgan natijani olishga imkon yaratadi.

Iqtisodiy-matematik usullarni tahlil qilish jarayonida qo'llashning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Tahlil etish muddati tezlashadi.
- Iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar ulushi aniq hisoblanadi.
- Taxminiy yoki noaniq hisoblashlar o'rnini aniq son va dalillar egallaydi.⁵

Xulosa

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlardan xulosa qilishimiz mumkinki. Regression tahlilni amalga oshirib biz undan kelajak uchun prognozlarni amalga oshirib kutilayotgan natijalarga oldindan tayyor turishimiz va shunga muvofiq biznes-rejaga tegishli o'zgarishlar kiritib ehtimoliy xavflarni oldini olishimiz yoki ularning ta'sirini kamaytirishimiz mumkin. Jahon amaliyoti va tajribasidan kelib chiqib, biznesning investisiya va innovasion faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni endi oddiy vositalar bilan, ya'ni imtiyozlar berish yoki yangi deklarativ me'yorlarni nashr etish bilan hal qilishning imkoni yo'q. Xususiylar investisiyalarni faollashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirishimiz kerak bo'ladi.

References:

1. Djefri Vuldriddj "Introductory Econometrics: A Modern Approach".Courses. 2002-yil, 741 bet.
2. Amonboyev M. ning "Bozor infratuzilmasi nazariyasi". Darslik, 2012-yil, 185 bet.

⁵ Djefri Vuldriddj "Introductory Econometrics: A Modern Approach".Darslik. 2002-yil, 741 bet.



3. Yuriy V. Kovtunenکو, Natalia S. Kachanova, Kateryna F. Popovych, Modern methods of analysis of economic indicators of the enterprise, ISSN:2226-2172 2018, 12 bet